ÖZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVÇI DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGAŞ

ÖZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLAR UNIVERSITETI

SAIDKHODJAEVA MEHRIXON RAKHMAT QIZI

ISPAN, RUS VA ÖZBEK TILLARIDAGI ŞAXS NOMLARINING TADQIQI (qon-qarindoşlik leksemalari misolida)

10.00.13 – Qiyosiy va çoğiştirma tilşunoslik

Filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toşkent – 2026

UDK: 81'373.45
81'373.613

Filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of Doktor Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Saidxodjayeva Mehrixon Raxmat qizi
Ispan, rus va özbek tillaridagi şaxs nomlarining tadqiqi (qon-qarindoşlik leksemalari misolida)…….3

Saidkhodjaeva Mekhrixon Rakhmat kizi
A Study of Terms Denoting Persons in Spanish, Russian, and Uzbek (Based on Blood Kinship Lexemes)……..27

Саидходжаева Мехрихон Рахмат кизи
Исследование названий лиц в испанском, русском и узбекском языках (на примере лексем кровного родства)……...51

E'lon qilingan işlar röyxati
List of published works
Список опубликованных работ…….56

**ÖZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVÇI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGAŞ**

ÖZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLAR UNIVERSITETI

SAIDKHODJAEVA MEHRIXON RAKHMAT QIZI

ISPAN, RUS VA ÖZBEK TILLARIDAGI ŞAXS NOMLARINING TADQIQI (qon-qarindoşlik leksemalari misolida)

10.00.13 – Qiyosiy va çoğiştirma tilşunoslik

Filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toşkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Özbekiston Respublikasi Oliy talim, innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.3.PhD/Fil314 raqan röyxatga olingan.

Dissertatsiya Özbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uç tilda (özbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengaşning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylaştirilgan.

Ilmiy rahbar: **Qulmamatov Dösmamat Sattaroviç,**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Axmedov Oybek Saporbayeviç**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Şamaxmudova Aziza Furqatovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yetakçi taşkilot: **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganç davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Özbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvçi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengaşning «__» __2026-yil soat _ dagi majlisida bölib ötadi. (Manzil: 100170, Toşkent, Uçtepa tumani, G-9a mavzesi, Kiçik Halqa Yöli köçasi, 21a uy. Tel: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-91; e-mail: uzswlu_info@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Özbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanişiş mumkin (___ raqami bilan röyxatga olingan). Manzil: 100170, Toşkent, Uçtepa tumani, G-9a mavzesi, Kiçik Halka Yöli köçasi, 21a-uy. Tel: (99871) 230-12-91.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

A.A. Nasirov
Ilmiy darajalar beruvçi ilmiy kengaş raisi, filologiya fanlari doktori, professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvçi ilmiy kengaş ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvçi ilmiy kengaş qoşidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRIŞ (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilşunosligida turli tizimli tillar leksik xususiyatlarini örganişga qiziqiş tobora ortib bormoqda. Bunga sabab tillar orasidagi muloqotning kun sayin takomillaşayotganidir. Tillarning bir-biriga ta'sirini diaxron va sinxron nuqtai nazardan oçib beriş hamda ularning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etiş zamonaviy tilşunoslikning yanada rivojlanişiga va yangi qirralarini oçişga xizmat qiladi. Şu bois, qon-qarindoşlikka oid leksemalarning gnoseologik va ontologik jihatlarini mohiyatini tadqiq etiş zaruriyatini belgilaydi.

Dunyo tilşunosligida qarindoşlik munosabatlarini bildiruvçi leksemalar turli tizimli tillarning luğat tarkibida asosiy örinlardan birini egallaydi. Mazkur leksemalarning struktur-semantik jihatdan yetarli darajada örganilmagani muhim ilmiy tadqiqotlarni amalga oşirişni taqozo etmoqda. Ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qarindoşlik leksemalari şakllanişi va rivojlanişining struktur-semantik hamda funksional jihatlarini qiyosiy-çoğiştirma metod asosida örganiş bir qator lingvistik masalalarni hal qiliş imkonini beradi.

Özbekiston Respublikasining Yevropa va Şarq mamlakatlari bilan bölgan iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalarining rivojlanişi xalqimizning, ayniqsa yoşlarimizning, çet tillarini örganişga bölgan qiziqişini faollaştirmoqda. Özbekiston Respublikasi Prezidenti Ş. M. Mirziyoyev körsatib ötganlaridek, "...hozirgi davrda xorijiy tillarni mukammal örganmasdan turib, yuksak marralarga erişib bölmaydi"[1]. Bunday vaziyat, jumladan, mamlakatimizda tillarni qiyoslab va çoğiştirib örganişni taqozo etmoqda. Şu sababli ispan, rus va özbek tillariga oid qon-qarindoşlik leksemalarini tadqiqqa jalb etiş hozirgi lingvistika fanining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda özbek tilinin yanada rivojlantiriş va til siyosatini takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida"gi, 2021-yil 19 maydagi PF-5117-son "Özbekiston Respublikasida xorijiy tillarni örganişni ommalaştiriş faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqiçga olib çiqiş çora tadbirlari töğrisida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son "2022-2026-yillarga möljallangan Yangi Özbekistonning taraqqiyot strategiyasi töğrisida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "Özbekiston – 2030" strategiyasi töğrisida"gi, 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son "Davlat tilini yanada rivojlantirişga oid qöşimça çora-tadbirlar töğrisida"gi, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillaştirişning qöşimça çora-tadbirlari töğrisida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegişli boşqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarişda uşbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanişining ustuvor yönalişlariga boğliqligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalari

[1]2020 йил 29 декабр куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва şavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020

rivojlanişining I. “Axborotlaşgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirişda innovatsion ğoyalar tizimini şakllantiriş va ularni amalga oşiriş yo‘llari” ustuvor yo‘nalişiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning örganilganlik darajasi. Tilşunoslikda turli tizimli tillarga xos qarindoşlikka oid leksemalarni[2] örganişga bağişlangan qator ilmiy işlar çop etilgan.

Qarindoşlik leksemalarining kelib çiqişi va şakllanişi A.R. Agurto, B. Mauricio, J.G. Sánchez, S.T. Juarez, R.B. Araujo, P.M. García, F.P. Filin, A.N. Kononov, O.N. Trubaçyov, A.A. Pokrovskaya, S.M. Abramzon, S.A. Moiseyeva, O.Yu. Nikolenko, S.J. Davlatova[3] kabi qator tilşunoslarning ilmiy işlarida tadqiq etilgan.

Qarindoşlik leksemalari sinxron aspektda ispan (F. Robin, M.L. García, S.T. Juárez[4]), rus (A.I. Moiseyev, N.I. Sumnikova, M.M. Kopylenko, Y.Y. Koşeleva, O.S. Çesnokova[5]) va özbek (A. Işayev, M.Ş. Saidova, S.A. Ulugmuratova, D. Nu’monova, N.R. Jalilova, B.U.Rahmatov[6]) tilşunoslarining ilmiy işlarida örganib çiqilgan.

---

[2] “Leksema – şakl va ma’no jihatidan bir butun holda tekşiriladigan mustaqil ma’noli söz; til qurilişining leksik ma’no anglatuvçi birligi” // Leksema (ahttp://feb-web.ru/feb/slt/abc/lt1/lt1-3992.htm (murojaat sanasi: 18.10.2021)

[3] Alexis Reto Agurto. Origen de las palabras “madre” y “mamá” // https://www.udep.edu.pe/castellanoactual/_origen-de-las-palabras-madre-y-mama/; Mauricio B. « Pater», «auunculus», auus, nella cultura romana più ar- caica // Athenaeum 62, 1984. – Pp. 468–491 ; Jairo Javier García Sánchez. Los grados de abuelo // Actas del VIII Congreso Internacional de Historia de la Lengua Española, 2012. – Pp. 1385–1394; Susana Terrones Juárez. Lo que hay detrás de “madre” // https://www.udep.edu. pe/castellanoactual/ lo-que-hay-detras-de-madre/; Raúl Bendezú-Araujo. El léxico de parentesco del quechua según Juan Pérez Bocanegra (Cuzco, siglo XVII) // Lexis, 2014. – Vol. XXXVIII (2). – Pp. 429–456; Филин Ф. П. О терминах родства и родственных отношений в древнерусском литературном языке // Язык и мышление. – М.-Л., 1948. – Т. 11. – С. 329–346; Кононов А. Н. К этимологии слова огул «сын» // Филология и история монгольских народов. Памяти академика Б. Я. Владимирцова. – М., 1958. – С. 175–176; Трубачев О. Н. История славянских терминов родства и некоторых древнейших терминов общественного строя. – М.: АН СССР, 1959. – 148 с.; Покровская А.А. Термины родства в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М., 1961. – С. 11–81; Абрамзон С. М. О некоторых терминах родства в тюркских языках // Тюркология: к 70-летию акад. А.Н. Кононова. – Л., 1976. – С. 204–207; Моисеева С.А. Диахронический анализ терминов родства в западно-романских языках // Актуальные проблемы теоретической и прикладной лингвистики и оптимизации преподавания иностранных языков: памяти проф. Р.Г. Пиотровского. Материалы II Междунар. науч. конф., Тольятти, 5-7 окт. 2010 г. – Тольятти, 2010. – С. 237–243; Николенко О. Ю. Номинации кровного родства в древнерусском языке // Вестник Омского ун-та. Гуманитарные исследования, 2018. – № 4 (21). – С. 72–76; Давлатова С.Ж. Названия, связанные с родством в словаре М.Кашгарского «Диван лугат ат-Турк», их использование в современном кыргызском языке // Бюллетень науки и практики, 2021. – Т. 7. – № 5. – С. 605–615.

[4] Fox Robin. Sistemas de parentesco y matrimonio. 2ª edición. – Madrid: Alianza editorial,1979. – 125 p.; María Isabel Loring García. Sistemas de parentesco y estructuras familiares en la Edad Media. – Gobierno de la Rioja, 2001. – 26 p. ; Susana Terrones Juárez. Lo que hay detrás de “madre” // https://www.udep.edu. pe/castellanoactual/ lo-que-hay-detras-de-madre/.

[5] Моисеев А. И. Термины родства в современном русском языке // Филологические науки: Научные доклады высшей школы. – М.: Наука, 1963. – Вып. № 3 (23). – С. 120–132; Сумникова Н. И. Термины родства и свойства в современном русском языке // Русская речь. – М.: Наука, 1969. – № 2. – С. 117–123; Копыленко М. М. Семантические производные от русских терминов родства: парные лексемы дядя-тетя // Филол. науки. – М., 1992. – № 5/6. – С. 52–62; Чеснокова О.С. Отражение языковой картины мира в развитии лексической системы мексиканского национального варианта испанского языка: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – М., 2006. – 38 с.; Кошелева Е. Ю. Терминология родства в русском языке // Альманах современной науки и образования. – Томск: Издательство «Грамота», 2009. – № 2 (21). – Часть 2. – С. 73–74.

[6] Ишаев А. Ўзбек шеваларидаги қариндошлик терминлари // Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент, 1971. – Б. 320–385; Нуъмонова Д. Қон-қариндош номларининг компонент таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – № 5. – В. 47–55; Жалилова Н.Р. Бадиий матндаги қон-қариндошлик терминларининг типологик ва структурал-грамматик тавсифи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) д-си автореферати. – Самарқанд, 2019. – 51 б.; Saidova M. S. Namangan özbek şevalaridagi quda, jiyan terminlarining etimologiyasi va

Ta’kidlaş lozimki, qardoş, va noqardoş tillarga oid qarindoşlik, jumladan, qon-qarindoşlik, leksemalari tilşunoslar tomonidan qiyoslanib (I.Ismoilov, I.S.Kozyrev, O.S.Maniyazova, V.V.Zvyagintseva, M.Nikoliç, N.V.Novospasskaya, A.V.Andreyeva[7]), çoğiştirilib (B.A.Dzhabborov, Kh.Kh.Egamnazarov, A.Ş.Albekova, Ş.Zh.Erzhigitova, T.Yuyan, Ç.Zh.Musayeva, I.A.Rasulova, G.U.Oçilova[8]) va qiyoslab-çoğiştirilib (M.Ş.Sarybayeva[9]) ham tadqiq etilgan. Ammo ispan, rus va özbek tillarida qöllanilib kelinayotgan qon-qarindoşlik leksemalari şu kungaça qiyosiy-çoğiştirma nuqtai nazardan tahlilga tortilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasinig ilmiy-tadqiqot işlari bilan boğliqligi. Dissertatsiya Özbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot işlari rejasining 2023–2025-yillarga möljallangan “Zamonaviy tilşunoslik nazariy muammolari masalalarining yangi yönalişlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qarindoşlikka oid leksemalarning taşqi va içki ma’nosini hamda matnlarda qöllaniliş xususiyatlarini qiyosiy-çoğiştirma aspektda tadqiq qilişdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ispan, rus va özbek tillarida qarindoşlikka oid terminlarning şakllanişini hamda dissertatsiya mavzusi bilan boğliq ilmiy işlarni örganiş va baholaş;

qon-qarindoşlik leksemalarining ispan, rus va özbek tillari lingvistik luğatlarida beriliş tamoyillarini tahlil qiliş;

---

leksik-semantik xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023. – 3(11). – B. 357–363; Улугмуратова С.А. Лексико-семантическая и культурная интерпретация концепта «мать» в узбекском языке // Universum: филология и искусствоведение – электрон. научн. журн., 2025. – № 8 (134). – С. 33–37; Rahmatov B.U. Özbek tilidagi qarindoşlik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari // "World of Philology" Scientific Journal, 2025. – Vol. – 4 – Iss. 3. – Pp. 122–138.

[7] Исмоилов И. Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари ўзбек, уйғур, қозоқ, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида). – Тошкент: Фан, 1966. – 150 б.; Козырев И. С. Из истории развития терминологии родства в русском и белорусском языках // Русская историческая лексикология. – М., 1968. – С. 3–19; Маниязова Р.А. Семантические соотношения наименований родства, должностей и качества при таджикско-русских языковых контактах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2000. – 18 с.; Звягинцева В.В. Оценочно-характеризующие обращения в семейном дискурсе русского и английского языков // Известия Курск ГТУ. – Курск: Курск ГТУ, 2010. – Вып. 3. – С.143–148; Николич Милина, Новоспасская Н.В. Термины родства в русском и сербском языках // Вестник РУДН, серия Теория языка. Семиотика. Семантика. – М., 2013. – № 1. – С. 74–77; Андреева А. В. Общая характеристика терминов родства в английском, русском и украинском языках // Вестник студенческого научного общества ГОУ ВПО «Донецкий.национальный университет». – Донецк, 2018. – Вып. 10. – Т. 2. – С. 79–82.

[8] Джабборов Б.А. Номинации значений свойства в таджикском и узбекском языках: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Хужанд, 2009. – 27 с.; Эгамназаров Х. Х. Термины родства и их функционально-семантические микросистемы в узбекском и английском языках: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Душанбе, 2010. – 24 с.; Альбекова А.Ш. Семантический анализ терминов духовного вида родства в русском и казахском языках // https://rusnauka.com/3_SND_2010/Philologia/57587.doc.htm; Эржигитова Ш. Ж. Ономасиологический аспект изучения терминов родства женского пола в кыргызском и русском языках: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Бишкек, 2018. – 26 с.; Цюй Юян. Лингвокультурные особенности русской системы терминов родства (на фоне китайского языка): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – СПб., 2019. – 23 с.; Мусаева Ч.Ж. Функционально-семантическое поле терминов со значением «родство» в русском и кыргызском языках: Дисс. … канд. филол. наук. – Бишкек, 2023. – 186 с.; Расулова И.А. Термины родства: контрастивный анализ узбеского и русского языкоы // Turkologik tadqiqotlar” xalqaro ilmiy jurnali. – Samarqand, 2024. – № 3 (5). – B. 128–133; Oçilova G.U. “Brother” -“aka/uka” qarindoşlik oti atamasining funksional -semantik tadqiqi // Science time. Scientific journal, 2026. – Vol. 4. – Iss. 5/2. – Pp. 164–168.

[9] Сарыбаева М. Ш. Система обозначений родства в английском, русском и казахском языках: Автореф. дисс. … канд.филол.наук. – Алма-Ата, 1991. – 31 с.

tahlil qilinayotgan tillardagi qon-qarindoşlikka oid leksemalarning struktur-semantik va funksional xususiyatlarini aniqlaş;

qiyoslanayotgan va çoğiştirilayotgan tillardagi qon-qarindoşlikka oid leksemalarning badiiy matnlarda qöllaniş funksiyalarini hamda fonetik, semantik, morfologik xususiyatlarini oçib beriş.

Tadqiqotning obyekti ispan, rus va özbek tillarining leksikografik manbalari (izohli, etimologik, ikki tilli – ispança-rusça, ispança-özbekça, rusça-ispança, özbekça-ispança luğatlar) va badiiy adabiyot matnlaridagi qon-qarindoşlik leksemalari hisoblanadi.

Tadqiqot predmetini ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qarindoşlik leksemalarining fonetik, semantik, etimologik morfologik va funksional aspektlari taşkil qiladi.

Tadqiqotning usullari yuqoridagi vazufalar bilan belgilangan. Işda tavsiflaş, qiyoslaş, çoğiştiriş, statistic tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qon-qarindoşlikka oid leksemalarning ispan, rus va özbek tilşunoslari tomonidan tadqiq etiliş tarixi, nazariy-metodologik asoslari va ilmiy talqinlari tizimlaştirilgan holda ulardagi nazariy yondaşuvlarning universal va farqli jihatlari, erişilgan ilmiy natijalar hamda hal qilinişi kerak bölgan muammolar aniqlangan;

ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qarindoşlikka xos leksemalarning lingvistik luğatlarda beriliş tamoyillarini, izohli, etimologik va tarjima luğatlaridagi tavsiflarini çoğiştiriş asosida luğat maqolalarida ularning etimologik, fonetik, semantik va morfologik xususiyatlarini tizimli va izçil ifodalaşga doir leksikografik tavsif mezonlarini takomillaştiriş zarurati asoslangan;

turli tizimli tillardagi qon-qarindoşlik leksemalarining tarixiy şakllaniş xususiyatlari ularning kelib çiqişi, tadrijiy taraqqiyoti va tillararo özlaşiş jarayonlarini qiyosiy-etimologik tahlil qiliş asosida ispan tilidagi mazkur leksemalarning lotin, rus tilidagilarning slavyan, özbek tilidagilarning esa umumturkiy qatlamga mansubligi hamda arab va fors-tojik tillaridan özlaşgan qarindoşlik atamalari ham mavjudligi isbotlangan;

vertikal va gorizontal qon-qarindoşlik munosabatlarini nomlovçi leksemalarning tillararo umumiy va farqli belgilari ispan, rus va özbek tillariga oid leksik materiallar hamda ularning turli nutqiy va badiiy kontekstlardagi qöllanişini çoğiştirma tahlil qiliş asosida uşbu birliklarning fonetik, struktur-semantik va morfologik xususiyatlari, matndagi semantik vazifalari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ispan, rus va özbek tillarida qon-qarindoşlik leksemalarining qiyosiy-çoğiştirma tahlili asosida ularning struktur-semantik xususiyatlarini örganiş ahamiyati oçib berilgan;

misollar asosida ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qarindoşlik leksemalarining kelib çiqişi, şakllanişi, fonetik, semantik va morfologik xususiyatlari körsatib berilgan;

tadqiqotda tahlilga tortilgan leksemalarni oliy öquv yurtlarida ispan, rus va özbek tillarini qiyosiy-çoğiştirma öqitiş jarayonida qöllaş böyiça amaliy tavsiyalar işlab çiqilgan.

ispan, rus va özbek tillaridagi badiiy matnlarda qöllanilgan qon-qarindoşlik leksemalarining taşqi va içki şakllari oçib berilgan.

Ilmiy tadqiqot natijalarining işonçliligi olingan xulosalarning işonçliligi hamda barqarorligi, ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qarindoşlik leksemalarining leksikografik manbalarda berilgan taqdimoti, ularning kelib çiqişi va şakllaniş tarixi oçib berilganligi, taşqi va içki şakllari aniqlanganligi, tajriba-sinov işlarining sifat jihatdan ta'minlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli taşkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Ilmiy tadqiqot natijalarining işonçliligi ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qarindoşlik leksemalarining tadqiq qilinişida nazariy lingvistik ilmiy adabiyotlarga tayanganligi, ularning leksikografik va badiiy adabiyotlar materiallari asosida kelib çiqişi hamda şakllaniş tarixining oçib berilganligi, taşqi va içki şakllarining aniqlanganligi, tajriba-sinov işlarining sifat jihatdan ta'minlanganligi, tadqiqot jarayonida olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi hamda vakolatli taşkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ispan, rus va özbek tillarida qon-qarindoşlikka oid leksemalar tasnifi hamda ularning lingvistik luğatlarda va badiiy adabiyot matnlarida qöllanişini örganib, struktur-semantik va funksional xususiyatlarini oçib beriş bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan oliy ta'lim tizimida "Leksikologiya", "Umumiy tilşunoslik", 'Qiyosiy tilşunoslik", "Çoğiştirma tilşunoslik" nazariy kurslarini öqitişda, şuningdek, ispan-rus va ispan-özbek tillari orasidagi aloqalar böyiça maxsus kurslardan ma'ruza öqiş hamda seminar darslarini ötkazişda, dissertatsiya va monografiyalar yozişda foydalaniş mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinişi. Ispan, rus va özbek tillaridagi şaxs nomlarining tadqiqi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida:

qon-qarindoşlikka oid leksemalarning ispan, rus va özbek tilşunoslari tomonidan tadqiq etiliş tarixi, nazariy-metodologik asoslari va ilmiy talqinlari tizimlaştirilgan holda ulardagi nazariy yondaşuvlarning universal va farqli jihatlari, erişilgan ilmiy natijalar hamda hal qilinişi kerak bölgan muammolar aniqlangani borasidagi mulohazalardan 2020–2022-yillarda Özbekiston davlat jahon tillar universitetida Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan FZ-2019062034-raqamli "Xorijiy tillarda sözlaşuvçilar uçun özbek tilini intensiv örgatuvçi multimedia mahsulotlarini yaratiş" loyihasida foydalanilgan (Özbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 24-maydagi 871-son ma'lumotnomasi). Natijada, ispan, rus va özbek tillari luğat tarkibida mavjud bölgan qon-qarindoşlikka oid leksemalarning tilşunoslar tomonidan örganiliş jarayonini tahlil qilişga hamda ularning yutuqlari va kamçiliklarini aniqlaşga imkon bergan;

ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qarindoşlikka xos leksemalarning lingvistik luğatlarda beriliş tamoyillarini, izohli, etimologik va tarjima luğatlaridagi tavsiflarini çoğiştiriş asosida luğat maqolalarida ularning etimologik, fonetik, semantik va morfologik xususiyatlarini tizimli va izçil ifodalaşga doir leksikografik tavsif mezonlarini takomillaştiriş zarurati asoslanganligi bilan boğliq xulosa va umumlaşmalardan Erasmus+ dasturining Project № 598340-EPP-1-2018-1-ES-

EPPA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC) loyihasida foydalanilgan (Özbekiston Milliy universitetining 2025-yil 28-oktyabrdagi 04/11-25464-son ma'lumotnomasi). Natijada, ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qarindoşlikka xos leksemalarning lingvistik luğatlarda beriliş tamoyillari haqidagi yangiça qaraşlar ularning etimologik, fonetik, semantik va morfologik xususiyatlari reprezentatsiyasini takomillaştiriş omillarini dalillaşga xizmat qilgan;

turli tizimli tillardagi qon-qarindoşlik leksemalarining tarixiy şakllaniş xususiyatlari ularning kelib çiqişi, tadrijiy taraqqiyoti va tillararo özlaşiş jarayonlarini qiyosiy-etimologik tahlil qiliş asosida ispan tilidagi mazkur leksemalarning lotin, rus tilidagilarning slavyan, özbek tilidagilarning esa umumturkiy qatlamga mansubligi hamda arab va fors-tojik tillaridan özlaşgan qarindoşlik atamalari ham mavjudligi aniqlangani haqidagi xulosalardan Ispaniyaning Kastiliya-La Mança universitetida amalga oşirilayotgan xalqaro ilmiy-ta'lim loyihalarda, xususan, qiyosiy tilşunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va xorijiy tillarni öqitiş yönalişlaridagi dastur loyihasida foydalanilgan (Kastiliya-La Mança universitetining 2026-yil 22-apreldagi 149-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha uçun tayyorlangan materiallar mazmun jihatdan boyitilgan;

vertikal va gorizontal qon-qarindoşlik munosabatlarini nomlovçi leksemalarning tillararo umumiy va farqli belgilari ispan, rus va özbek tillariga oid leksik materiallar hamda ularning turli nutqiy va badiiy kontekstlardagi qöllanişini çoğiştirma tahlil qiliş asosida uşbu birliklarning fonetik, struktur-semantik va morfologik xususiyatlari, matndagi semantik vazifalari dalillanganiga oid xulosalardan Erasmus+dasturining ICM, KA-107 – International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects between Uzbekistan State University of World Languages and Ruhr University Bochum (Germany) – 2020-1-DE01-KA107-005433- (Yevropa Ittifoqi hamda Özbekiston oliy ta'lim muassasalari örtasida xalqaro tajriba almaşinuvi doirasida Özbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Boxumdagi Rur universiteti (Germaniya) örtasidagi kredit safarbarligi) xalqaro loyihasida foydalanilgan (Özbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 28-oktyabrdagi 04-06-1/6307-son ma'lumotnomasi). Natijada, ispan, rus va özbek tillari vertikal va gorizontal qon-qarindoşlik leksemalarining fonetik, struktur-semantik, morfologik hamda matndagi funksional xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida muhokamadan ötkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi böyiça jami 15 ta ilmiy maqola çop etilgan, Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini çop etiş tavsiya qilingan ilmiy naşrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda naşr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilişi va hajmi. Dissertatsiya kiriş, uç bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar röyxatidan iborat bölib, umumiy hajmi 135 sahifani taşkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Işning **kiriş** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanişining ustuvor yönalişlariga mosligi körsatilgan, amaliy natijalari va ilmiy yangiligi bayon qilingan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati oçib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilişi, aprobatsiyasi, naşr etilgan işlar va dissertatsiya tuzilişi böyiça ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinçi bobi **“Turli tizimli tillarda qarindoşlikka oid leksemalar tadqiqining nazariy asoslari”** ispan, rus va özbek tillarida qarindoşlik tuşunçalarini ifodalovçi leksemalarning alohida, qiyosiy, çoğiştirma va qiyosiy-çoğiştirma aspektda örganilişi masalalariga bağişlangan.

Bobning dastlabki faslida **“Ispan, rus va özbek tillarida ‘qarindoşlik’ tuşunçalarining şakllanişi”** tahlilga tortilgan.

Ispan va rus tillaridan farq qilgan holda, özbek tilining luğat qatlamida qondoşlik munosabatlar ötmişini hamda ma’naviy yaqinligini anglatadigan yetti avlod va ajdod (nasl-nasab) – “ota-ona”, “farzand”, “nabira”, “çevara”, “evara”, “nobora”, “dubora”, “begona” kabi terminlar mavjud. U.P.Lafasovning ta’kidlaşiça, qadimdan turkiylarda mavjud bölgan yetti avlod nomi “sözlaşuv tili bölgan turli lahja va şevalarimizda saqlanib turibdi”[10].

1.1-jadval

Yetti avlod nomi

Turkiy						
aktik	*çavlik*	*javlik*	*bavlik*	*avlik*	*davlik*	*yovlik*
Forsiy						
nevara	*çevara*	*evara*	*devara*	*abira*	*dabira*	*begona*

Turkiy xalqlar madaniyatida, jumladan, özbek, har bir inson özining yetti puştini bilişi kerakligi ota-bobolarimiz tomonidan köp marotaba takidlagan. Bu an’ana, avlod-ajdodlar bilan boğliqlikni va oilaviy tarixni, şaxsning kimligini, qanday oiladan kelib çiqqanligini saqlaşga yordam bergan. Musulmon ahliga xos uşbu udumga Amir Temur ham e’tibor qaratgan: “Kelin bölmişning nasl-nasabini, yetti puştini suriştirdim. Xos odamlar orqali soğliq-salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bölmiş nasl-nasabasi, odob-axloqi, soğlom va baquvvatligi bilan barça qusurlardan xoli bölsagina, el-yurtga katta töy-tomoşa berib, kelin tuşurdim”[11].

Inson tasavvurida qarindoşlik tuşunçalari (yaqin, uzoq), dunyo xalqlari tili va madaniyati içki hamda taşqi munosabatlariga mutanosib ravişda, oilada şakllanib boşlanadi. *Oila* sözi qardoş va noqardoş tillarda, jumladan, ispan, rus va özbek, turli

[10] Lafasov U.P. Okuzbeks, Their Language, Place in Society and Culture // https://www.researchgate.net/publication/384092095_

[11] Amir Temur ögitlari. – T.: Navröz, 1992. – B. 58.

şakl, talaffuzga ega bölib, bir-biridan farq qiladi. Bunga ispan tilidagi *familia* sözining özbekça *oila,* rusça *семья* kabi ekvivalentlari misol böla oladi.

Bobning ikkinçi faslida "**Qarindoşlik leksemasi ispan, rus va özbek tilşunosligining obyekti sifatida**" qarindoşlik leksemalarining alohida, qiyosiy va çoğiştirma aspektda örganiliş tahlil qilingan.

Qarindoşlikka oid leksemalar ilk bor L.G.Morganning «Системы родства и свойства человеческой семьи» ('Inson oilasining qaridoşlik va quda-andalik tuzilişi') ilmiy asarida amerikalik hindlar tiliga tegişli bölgan qarindoşlik terminlar asosida tahlil qilingan va ularning qöllaniliş xususiyatlari körsatib bergan[12]. Bu haqda ma'lum bir tasavvurga ega böliş uçun şu kungaça amalga oşirilgan ba'zi bir muhim tadqiqotlarni tahlilga tortamiz.

XX asrning ikkinçi yarmidan boşlab bugungi kunga qadar bu borada ispan, rus va özbek tilşunoslarining amalga oşirgan qator ilmiy işlari diqqatni öziga tortadi. Bu haqda tasavvurga ega böliş uçun şu kungaça çop etilgan muhim tadqiqotlarga murojaat qilamiz.

O.C.Çesnokovaning "Отражение языковой картины мира в развитии лексической системы мексиканского национального варианта испанского языка" nomli dissertatsiyasida meksika ispan tilining meksika(ça) varianti materiali asosida *padre* (rus. 'отец', özb. 'ota') va *madre* (rus. 'мать', özb. 'ona') kabi umumispan qarindoşlik leksemalarining 1) evolyutsiyasi körib çqilgan hamda meksikaliklarning olam lisoniy manzarasini qayta qurişda ularning roli izohlangan; 2) ispan tili Meksika milliy versiyasida uzviy qöllanişni dalillangan[13].

Por Alexis Reto Agurto özining 2012 yilda e'lon qilgan "Origen de las palabras 'madre' y 'mamá'" ("Ona" va "oyi" sözlarining kelib çiqişi) maqolasida kelib çiqiş nuqtai nazardan lotinça bölgan ispança *madre (< mater, -tris*) sözining XI va XII asr şoirlari adabiy asarlari matnlarida tez-tez qollanilgani e'tirof etilgan. Uning fikriga köra, u "ona ma'buda, keyinçalik Bokira Maryam (Virgen María)ni tasvirlaş uçun işlatilgan lotinça 'Alma Mater' ('emizuvçi ona') iborasi bilan boğliq bölib, hozirgi vaqtda 'tegişli tadqiqotlar tugallangan joy – ta'lim muassasasi, kollej yoki universitet'ga nisbatan işlatiladi"[14].

Ta'kidlaş joizki, qarindoşlik leksemalari rus tilşunoslarining dissertatsiyalari va ilmiy maqolalrida ham batafsi tadqiq qilingan.

S.X.Golovkina özining rus şoiri N.A.Klyuvning çop etilgan 450 poetik matnlari (şe'rlari va poemalari), folklor va diniy matnlar, mifologik luğatlar ma'lumotlari, yozuvçi tili luğatlari asosida yozilgan "Термины родства в поэзии Н.Клюева (в лексикографическом аспекте)" mavzusidagi dissertatsiyada rus tiliga oid qarindoşlik terminlari funksional-semantik tahlilga va leksikografik tafsifga tortilgan[15]. Ammo ularning matnlarda qöllaniliş xususiyatlari tahlil qilinmagan.

---

[12] Морган Л.Г. Древнее общество. – Л.: Изд-во Института народов севера ЦИК СССР, 1934. – 350 с.

[13] Чеснокова О.С. Отражение языковой картины мира в развитии лексической системы мексиканского национального варианта испанского языка: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – М., 2006. – С. 16.

[14] Alexis Reto Agurto. Origen de las palabras "madre" y "mamá" // https://www.udep.edu.pe/castellanoactual/origen-de-las-palabras-madre-y-mama/

[15] Головкина С.Х. Термины родства в поэзии Н.Клюева (в лексикографическом аспекте): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Вологда, 1999. – С. 10–11.

Özbek tilidagi qarindoşlik terminlari I.Ismoilov, M.Ş.Saidova, D.I.Burxonova, Ş.Sodiqova kabi tadqiqotçilarning ilmiy işlarida örganilgan.

I.A.Ismoilovning «Turkiy tillarda qavm-qarindoşlik terminlari» (özbek, uyğur, qozoq, qirğiz, qoraqalpoq va turkman tillari materiallari asosida) nomli monografiyasida uşbu tillar luğaviy tarkibidagi qavm-qarindoşlik terminlarining leksik, semantik va grammatik xususiyatlari qiyosiy usul yordamida yoritib berilgan[16].

M.Ş.Saidovaning "Namangan şevalaridagi qarindoşlik terminlarining leksik-semantik tahlil" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida nikohgaça va nikohdan keyin hosil bölgan Namangan özbek şevalaridagi qarindoşlik terminlarining tarkibi, ma'lum darajada kelib çiqiş tarixi, şakllanişi, fonetik, semantik va morfologik xususiyatlari aniqlangan[17]. Bu örinda ta'kidlaş lozimki, işda qarindoşlik termilari nafaqat leksikografik, balki boşqa yozma manbalar asosida tadqiq qilinganda, uning qimmati yanada oşgan bölar edi.

D.I.Burxanovaning "Vertikal çiziq qarindoşlik atamalari tizimida giperonim xarakteridagi "avlod" atamasining suppletivdoş giponimlari haqida" nomli maqolasida özbek xalqining 'etti avlod' tuşunçasi bilan boğliq qarindoşlik terminlari – "nabira", "çevara", "evara", "zuvola", "paynevara", "uvora", "kukun nevara" ва "begona" tadqiq qilgan[18].

Ş.Sodiqovaning "Qarindoşlik atamalari tizimi lisoniy kategoriya sifatida örganilişi" mavzuidagi maqolasida özbek tili luğat qatlamidagi 1) bevosita qon-qarindoşlik, 2) yaqin qarindoşlik, 3) uzoq qarindoşlik guruhlarga oid haqida fikr yuritilib, "zot", "uruğ", "tomir", "taraf", "yaqin", "negiz" kabi terminlarning özига xos jihatlari haqida tuşunça bergan[19]. Ammo uşbu leksemalarning kelib çiqişi, şakllanişi, semantik strukturasi tahlil qilinmagan.

Şunday qilib, kategoriya qarindoşlik bugungi kunda bir qança gumanitar fanlar, jumladan tilşunoslik, antropologiya, sotsiologiya va hatto aql falsafasidagi tadqiqot uçun muhim sohadir. Ularni har tomonlama örganiş lingvistik mexanizmlarni tuşunişga yordam beradi, oila, gender rollari va ijtimoiy ierarxiyalar haqidagi madaniy ğoyalarni örganişga imkon beradi.

Turli tizimli tillar, xususan, ispan, rus va özbek, luğat qatlamida qöllanib kelinayotgan qarindoşlik leksemalarining tadqiq qilinişiga tilşunoslarning e'tibori kun sayin ortib bormoqda, çunki bunday tadqiqotning muvaffaqiyatli olib borilişi tilning umumiy nazariyasi masalasini hal qiliş uçun zarur şart-şaroitlarni yaratadi. Bu kabi işlar lingvistik universallarni ham mutlaq, ham statistik jihatdan aniqlaş imkonini beradi. Bunga işonç hosil qiliş maqsadida ularning eng e'tiborga loyiq namunalariga töxtalib ötamiz.

---

[16] Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминдари (ўзбек, уйғур, қозоқ, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида). – Тошкент: Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти, 1966. – Б. 10–11.

[17] Саидова М.Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фан. ном. … дисс. автореферати. – Тошкент, 1995. – 24 б.

[18] Бурханова Д.И. Вертикаль чизиқ қариндошлик атамалари тизимида гипероним характеридаги "авлод" атамасининг супплетивдош гипонимлари ҳақида // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journalб 2022. – Vol. 3. – Iss. 1. – Pp. 745–749.

[19] Sodiqova Ş. Qarindoşlik atamalari tizimi lisoniy kategoriya sifatida örganilişi // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi (in-academy.uz/index.php/si), 2023. – № 24. — С. 100–102.

P.S.Guminov, S.A.Moiseyevalarning “Диахронический анализ терминов родства в западно-романских языках” mavzuidagi maqolasida qiyosiy usul asosida ğarbiy-roman tillarida qöllaniladigan fr. *père*, it. *padre*, isp. *padre* (< lot. *pater*); fr. *mère*, it. *madre*, isp. *madre* (< lot. *mater*); fr. *fils*, it. *figlio*, isp. *hijo*; fr. *fille*, it. *figlia*, isp. *hija* va boşqa qarindoşlik terminlarining kelib çiqişi, strukturasi va semantikasi tadqiq qilingan[20].

F.A.Gayçenyaning “Концепт СЕМЬЯ в русской и испанской языковых картинах мира. Лингвокультурологический анализ” deb çop etilgan işi rus va ispan sözlovçilari olami lisoniy manzarasida “семья” / “familia” (‘oila’) kontseptini tadqiq qilişga bağişlangan. Unda muallif rus va ispan tillari qarindoşlik terminlarini qiyoslab örganib, quyidagi xulosalarga kelgan: 1) ispan lisoniy manzarasida insonga “ikki oilali” böliş vaziati xos emas; u barça qarindoşlarini özining yagona oilasi deb ataydi; 2) olamining rus lisoniy manzarasida “oila jamiyatning boşlanğiç guruhi” hamda nafaqat qarindoşlar, balki maxsus hissiy munosabatlar bilan boğlangan qarindoşlar guruhi sifatida tuşuniladi; 3) *familia* leksemasining özi *oilaga* qaraganda köproq polisemantikdir; 4) olamining rus lisoniy manzarasida “oila” kontsepti “döstlik va umumiy manfaatlar bilan boğlangan odamlar guruhi” ma‘no elementini öz içiga oladi[21].

Yuqoridagi materiallarning şarhi va tahlili şuni körsatadiki, ispan, rus va özbek qon-qarindoşlik leksemalari maxsus qiyosiy-çoğiştirma aspektda örganilmagan.

Dissertatsiyaning ikkinçi bobi “**Ispan, rus va özbek tillarida vertikal qon-qarindoşlik leksemalarining struktur-semantik va funksional xususiyatlari**” deb nomlangan bölib, unda vertikal qon-qarindoşlik leksikaning semantikasi va uning matnda funksional qöllanilişi tadqiq qilingan.

Bobning birinçi fasli “**Vertikal qon-qaridoşlik leksemalari va ularning umumiy tavsifi**” tahliliga bağişlangan. Ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qarindoşlik leksemalari çuqur ildizlarga va boy tarixiy ötmişga ega.



2.1-rasm. Ispan, rus va özbek tillarida vertikal qon-qarindoşlik leksemalarining soni

[20] Гуминов П.С., Моисеева С.А. Диахронический анализ терминов родства в западно-романских языках // http://dspace.bsu.edu.ru/bitstream/123456789/786/1/Moiseeva_Diachronic_analysis.pdf

[21] Гайченя А.А. Концепт СЕМЬЯ в русской и испанской языковых картинах мира. Лингвокультурологический анализ [Электронный ресурс] // Язык и текст, 2018. – Т. 5. – № 4. – С. 76–77.

Yuqorida keltirilgan materiallardan körinadiki, ispan, rus va özbek tillardagi vertikal qon-qaridoşlik leksemalarning ifodalaniş xususitlari turliçadir. Jumladan, ispan tilida *abuelo, abuela, hermano, hermana, nieto, nieta, bisnieto*, *bisnieta*, rus tilida *дедушка, бабушка*, *брат*, *сестра*, *внук*, *внучка*, *правнук, правнучка* kabi sözlar grammatik rodni (jinsni emas), balki qarindoşlikni (yoki oilaviy aloqalarni) anglatadi. Ular kişilarni oiladagi qarindoşlik darajasi böyiça tavsiflaydi[22]. Özbek tilida grammatik rod kategoriyasi mavjud emasligi sababli, qarindoşlik leksemalarida jinsiy farqlaniş grammatik vositalar orqali ifodalanmaydi. Şu bois öğil va qiz farzandlarining bolalari uçun umumiy *nevara* leksemasi işlatiladi. Bu örinda zarur bölsa nevaralarning jinsi körsatiladi:

öğil nevara – "Işonasizmi, uç yilda ikki öğil nevara kördi" (Sobir Önar. Mutolaa: sariştali odamlar, 18);

qiz nevara – "Söng Mohizar otliq qiz nevara ham tuğilmiş, polvonnamoligi bor, dadasi kabi odamtalpingiç, lek ajibkim, qalbi nafis bölmişdur, ul hamkim elsuyar bölgay" (Isakov M.F. Abadiyat qonunlari, 36).

Jiyan sözi tuğişgan yoki tuğişmagan (amaki va amakivaççа) opa yoki singillarning, akalarining, otaning opa-singillarini farzandlariga nisbatan işlatiladi. Aniqlik talab qilinganda öğil jiyan, qiz jiyan şakillari qöllaniladi.

Şuni ham ta'kidlaş lozimki, uçala tilda (ispan, rus, özbek) eng yaqin qarindoşlarning– ota-onalar va bolalarning nomlaşda har bir oila a'zosi öz nomiga ega, ammo, ikkinçi tomondan, rus tilida uşbu leksemalarning turli özaklardan kelib çiqqanligi körinib turibdi: *отец*, *мать*, *родители*, *сын*, *дочь*, *дети*. Ispan tilida esa bir xil ildizning oilada turli xil körsatkiçga ega ekanligi namoyon böladi: padre, madre, padres; hijo, hija, hijos.

Bundan taşqari, özbek tilidan farqli ölaroq, ispan va rus tillarida ota va ona (русча родители; ispan tilida padres) uçun rod tuşunçasi mavjud. Ta'kidlaş joizki, ispan tilidagi padre rus va özbek tillarida mos ravişda "отец" hamda "ota", padres esa– "отцы" hamda "otalar" ma'nolarini anglatadi. Ispan tilida padre (rus. "отец", özb. "ota") "мать va отец" ma'nosida qöllaşning imkoni yöq. Ispan tilida padre leksemasining sinonimi sifatida progenitor (rus. прародитель, özb. ajdod) ham qöllaniladi. Zamonaviy ikki tilli 'Ispança-rusça / rusça-ispança luğat'da ("Diccionario Español'Ruso Ruso Español") u "предок, прародитель" körinişida berilgan, ammo onani belgilaş uçun "jenskiy rod"ning tugallanmasi a talab qilinadi– progenitora[23].

Barça tillarga xos bölganidek, ispan, rus va özbek tillarida vertikal ajdodlarnibildiruvçiqon-qarindoşlikleksemalariikkiturgabölinadi:

1. **Töğri çiziqli ajdodlar yuqori şajarasi böyiça –**

isp. *tatarabuelo* (*tatarabuela*) – rus. *прапрадед* – özb. *katta buva* (*bobo*) 'bobokalonning otasi (çevara nisbatan)';

[22] Белова Н.Ю. Родовые оппозиции имен существительных в современном русском литературном языке: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Ереван, 2011. – С. 8, 14.

[23] Испанско-русский и русско-испанский словарь (Diccionario Español'Ruso Ruso Español, 1996) / под ред. В.Ф. Сахно, С.А. Коваль. – Киев: Ирпень-Перун, 1996.– С. 254. 105.

isp. *tatarabuela – прапрабабушка* – özb. *katta buvi* (*momo*) ‘katta buva (boboning) yoki buvining onasi (çevara nisbatan)’;

isp. *bisabuelo* – rus. *прадед* – özb. *bobokalon* ‘buva (boboning) yoki buvining (momoning) otasi (evaraga nisbatan)’;

isp. *bisabuela* – rus. *прабабушка* – özb. *katta buvi* (*momo*) ‘buvining (momosining) onasi (nevaraga nisbatan)’;

isp. *abuelo* – rus. *дедушка* (бабушка) – özb. *bobo* (*buva*) ‘ota yoki onaning otasi’;

isp. *abuela* – rus. бабушка – özb. *buvi* (*momo*) ‘ota yoki onaning onasi’;

isp. *padre* – rus. *отец* – özb. *ota* ‘farzandli, bola-çaqali er kişi (öz bolalriga nisbatan)’;

isp. *madre* – rus. *мать* – özb. *ona* ‘farzandli yoki farzandlari bölgan xotin’;

isp. *hermano mayor* – rus. *старший брат* – özb. *aka* ‘bir ota-onadan tuğilgan katta öğil’;

isp. *hermana mayor* – rus. *старшая сестра* – uzb. *opa* ‘Bir ota-onadan tuğilgan farzandlar Içida özidan kiçiklarga (ukalarga, singillarga) nisbatan katta qiz’.

Demak, ispan va rus tillarida bevosita bevosita “qon-qarindoşlik bilan boğliq ota-ona, buva-buvi (bobo-momo), farzandlar va ularning bolalarini bildiruvçi leksemalarning nomlanişi farqlanadi. Ota va onaning ota-onalarini ispan va rus tillarida nomlanişi tegişli ravişda bir xil”, özbek tilida esa har xil. Özbek tilida ispan va rus tiliga tegişli bölgan uşbu leksemalarning ekvivalenti bölmaganligi sababli, ular izoh yöli bilan talqin qilinadi.

2. **Töğri çiziqli ajdodlar past şajarasi böyiça:**

isp. *hermano menor* – rus. *младший брат* – uzb. *uka* ‘bir ota-ona öğillaridan kiçigi (katta yoşdagi farzandlarga nisbatan)’;

isp. *hermana menor* – rus. *младшая сестра* – uzb. *singil* ‘Bir ota-onadan tuğilgan qizlarning kiçigi (opalariga, akalariga nisbatan)’;

isp. *hijo* – rus. *сын* – uzb. *öğil* ‘Er jinsli bola’;

isp. *hija* – rus. *дочь* – uzb. *qiz* ‘Baloğat yoşiga etmagan ayol’;

isp. *nieto* – rus. *внук* – uzb. *öğil nabira* (*nevara*) ‘Öğil yoki qizning farzandi (boboga, buviga nisbatan)’;

isp. *nieta*– rus. *внучка* – uzb. *qiz nabira* (*nevara*) ‘Öğil yoki qizning farzandi (boboga, buviga nisbatan)’

исп. *bisnieto* – рус. *правнук* – özb. *чевара* ‘öğil, qiz nevaraning ögli’; (қиз невараниng ўғли, қизи);

исп. *bisnieta – рус. правнучка* – özb. *чевара* ‘öğil, qiz nevaraning qizi’;

исп. *tataranieto* – рус. *праправнук* – узб. *evara* ‘öğil, qiz çevaraning öğli’;

исп. *tataranieta* – рус. *праправнучка* – узб. *evara* ‘öğil, qiz çevaraning qizi’.

Olib borilgan kuzatişlar va qiyosiy-çoğiştirma tahlil natijasida quyidagilar ma’lum böldi:

1. Gender jihatdan rus, ispan va özbek tillarida qon-qarindoş leksemalarining öxşaşligiga qaraganda, farqi köproq.

2. Rus va ispan tillaridagi qon-qarindoşlik leksemalarining özbek tilida ekvivalentlari bölmaganda, ular izoh yöli bilan talqin qilinadi.

3. Tögri çiziqli bölmagan qarindoşlarni bildirişda ispan va rus tillarida rod bölganligi sababli ikki körinişdagi leksemalar qöllaniladi, ozbek tilida uşbu kategoriya bölmaganligi sababli bir xil terminlar işlatiladi.

4. Ispan va rus tillaridagi leksemalarning özbek tilida ekvivalenti bölmaganda, ular izohlaş orqali talqin qilinadi

5. Özbek tilida rod kategoriyasi bölmaganligi sababli ispança *hijo* (mujsoy rod), *hija* (jenskiy rod), rusça *внук* (mujsoy rod), *внучка* (jenskiy rod) sözlari özbek tiliga *nevara* deb ögiriladi.

Bobning ikkinçi fasli "Vertikal qon-qarindoşlik leksemalarining semantikasi va ularning matnda qöllanilişi" deb nomlangan.

Öz navbatida, qon-qarindoşlikni bildiruvçi ba'zi leksemalarning, jumladan, struktur-semantik xususiyatlarini qiyosiy-çoğiştirma usulda körib çiqişga murojaat qilamiz.

Bisabuelo **–** "De tal modo que, un soldado de alto rango de ese ejército, platicando con el bisabuelo decidió prestarle el caballo más importante que tenían para que mi bisabuelo participara en la carrera, se llamaba *Pie de Plata* y según cuentan fue una carrera muy reñida, por lo que el señor puso todo su empeño y así logró ganar la carrera y recibió muchas felicitaciones de parte de diferentes miembros del ejército"[24] (Historias de familia. Presentación y coordinación de la selección Pablo Serrano Álvarez).

Ispan tilida uşbu murakkab sözning ajratib yozilgan – *bis* + *abuelo* şakli ham yozma matnlarda uçraydi: "Madero, esto, a pacificar el distrito norte de Baja California, ya que en el Valle de Mexicali, donde residía mi bis abuelo, se encontraba sin guarnición o destacamento milita"[25] (Historias de familia. Presentación y coordinación de la selección Pablo Serrano Álvarez).

Ispaniyalik filolog Elizabet Trevino Salasar (Elizabeth Treviño Salazar) fikriga köra, ispan tilida "*bisabuelo* 'katta bobö lotinça ildizlardan hosil bölib, 'boboning otasi', 'momoning otasi' degan ma'noni anglatadi. Uning leksik komponentlari *bis* bölib, u 'bobö va *bi-* – *by-* – *bis-* prefiksi 'old qöşimça' kompozitsion elementi bilan tuzilgan **aviolus* – lotincha *-olus*, *-avus* 'ajdod. çol; bobö sözlaridan kelib çiqqan. Lotinça qöşimça *bi-* 'ikki' yoki 'ikki marta', 'ikki yöl bilan' degan ma'noni anglatadi, çunki *bisabuelo* '*katta bobö* ikki avlod oldin bölgan 'boboning yoki momoning otasi' bölib hisoblanadi"[26].

Прадед **–** "Такова была у наших прадедов просушка" (Солженицын А. Архипелаг ГУЛАГ, 478).

Rus adabiy tilida *прадед* (*пра-* – 'pristavka', *дед-* – özak) sözi hamda uning derivatlari *прадедушка*, *прабабка* uçinçi avlodni, ya'ni 'boboning yoki momoning otasini' nomlaş uçun qöllaniladi[27].

Katta bobo – "Işonç bildiruvçiga qarindoş şaxslar doirasini aniqlaşda sud … oila kodekisining … moddalariga amal qilişi lozim bölib, ularga köra quyidagilar qarindoşlar hisoblanadi: … ota-ona, bolalar, nevaralar, bobo, buvi, evaralar, katta bobo, katta buvi"

[24] Historias de familia. Presentación y coordinación de la selección Pablo Serrano Álvarez. – México: instituto nacional de estudios Históricos de las revoluciones de México, 2012.– P. 40.

[25] Historias de familia. Presentación y coordinación de la selección Pablo Serrano Álvarez. – México: instituto nacional de estudios Históricos de las revoluciones de México, 2012. – P. 236.

[26] Abuelo, atavismo, bisabuelo, tatrabuelo // https://etimologico.com.mx/patrimoniales/abuelo.

[27] Качинская И.Б. Прадеды: термины восходящего родства в архангельских говорах // Вестник Московского университета. – Серия 9. Филология. 2021. – № 1. – С. 45.

(Özbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 yil 30 noyabrdagi 34-sonli qarori).

Özbek tilida turkiyça *katta* (‘yoş jihatdan uluğ, yoşi ortiq’) va forsça *bobo* (بابا) sözlari birikmasidan hosil bölgan **kattabobo** leksemasi «otaning yoki onaning otasining otasi (çevaraga nisbatan)» ma’nosi bilan badiiy matnlarda uçraydi: “Ota-onasi bağrida baxtiyor bolalik oğuşida bölgan çevarasi Abdulloh kattabobo uruşda oyoqlaridan öq yegan deb maqtanib gapirdi” (O.Мамадалиева. Сизда олтин кексалик бор, Бектурсин ота!). Ammo uşbu söz Özbek tilining izohli luğatida qayd etilmagan.

Bisabuela **–** “A pesar de que mi bisabuelo Dionisio era mujeriego, sus hijos le obedecían y nunca le reclamaban nada, porque él era de un carácter muy fuerte, y mi bisabuela tenía un carácter muy dócil; siempre la dominaba mi bisabuelo y se hacía lo que él decía y lo que a él le parecía, pero ella jamás renegaba de su palabra”[28] (Historias de familia. Presentación y coordinación de la selección Pablo Serrano Álvarez).

Bisabuela (‘katta buvi’ ‘katta momö) sözi *bis-* va *abuelo* (‘bobö) sözlaridan kelib çiqqan. Uşbu söz keng tarqalgan bölib, ispança luğatda eng köp işlatiladigan terminlar röyxatida 25244-örinni egallaydi[29].

Прабабушка **–** “Генеалогия главных лиц моего рассказа: Веры Павловны Кирсанова и Лопухова не восходит, по правде говоря, дальше дедушек с бабушками, и разве с большими натяжками можно приставить сверху еще какую-нибудь прабабушку (прадедушка уже неизбежно покрыт мраком забвения, известно только, что он был муж прабабушки и что его звали Кирилом, потому что дедушка был Герасим Кирилыч)”[30].

Uçinçi avlodni – bobo yoki momoning onasini bildiruvçi *прабабушка* leksemasini «Словарь русского языка XI–XVII вв.» mualliflari ilk bor “Летопись по Воскресенскому списку” nomli tarixiy manbada 1462-yil bilan ‘прабабушка, мать деда или бабушки’ ma’nosida qayd qilgan: “А князю Борису далъ Волокъ Ламский, Ржеву да Рузу, и всѣ власти и села прабабы” его Марии Глътяевы, по ее приказу”[31].

Uşbu sözning kelib çiqişi M. Fasmerning “Этимологический словарь русского языка” luğatida şunday tavsiflangan: “Происходит от *пра* + *бабушка*, далее от существительного *баба*, далее от праслав. *baba…”[32].

I. B. Kaçinskayaning fikriga köra, qadimgi rus tilida *прабáбушка* ‘ota yoki onaning onasi’ni *прáведушка* deb ataşgan. Uşbu leksema hozirda, jumladan, Rossiyaninh Povoljiya hududida yaşaydigan rusiyzabon xalqlarning oğzaki nutqida uçraydi[33].

Katta buvi **(*momo*)** – “Katta bobo va buvi böliş – bu muvozanatli harakatdir. Siz öz farzandlaringizni tuşunadigan, qöllab-quvvatlovçi ota-ona bölişingiz, şuningdek, nevaralarni qöllab-quvvatlovçi va mehribon bölişingiz kerak” (Muvaffaqiyatli bobo böliş uçun maslahatlar, 85).

---

[28] Historias de familia. Presentación y coordinación de la selección Pablo Serrano Álvarez. – México: instituto nacional de estudios Históricos de las revoluciones de México, 2012. – P. 236.

[29] Qarang: Etimología de la palabra bisabuela // https://educalingo.com/es/dic-es/bisabuela

[30] Чернышевский Н. Г. Что делать? // https://rus-center.lgaki.info/wp- content/uploads/2022/03/çernyşevskij_ content/uploads/2022/03/çernyşevskij_çto-delat.pdf

[31] Словарь русского языка XI–XVII вв. – М.: Наука, 1992. – Вып.18. – С. 96.

[32] Фасмер М. Этимологический словарь русского языка” // https://ru.wiktionary.org/wiki/

[33] Качинская И.Б. Прадеды: термины восходящего родства в архангельских говорах // Вестник Московского университета. – Серия 9. Филология. 2021. – № 1. – С. 47–48.

Hozirgi özbek tilida ikki tub – *katta* va *buvi* kabi sözlarning qöşilişidan iborat bölgan murakkab *kattabuvi* leksemasi “ota yoki onaning buvisi” ma’nosida qöllanadi: “Kattabuvi, – qizça halidan beri ayasiyu toğasi bilan bir nimalarni gaplaşib töxtamayotgan kattabuvisining öziga qaraganidan sevinib ketdi, çoği, közi çaqnab yalindi” (Zohidova Ma’mura. Boyçeçak, 56).

Özbek tilida “otaning yoki onaning onasini onasi” ma’nosida qöllanaladigan “kattabuvi” termini qiz bolaga ism sifatida qöyiladi. E.Begmatovning “Özbek ismlari ma’nosi” izohli luğatiga u quyidagi körinişda qayd etilgan: “Kattabuvi … – buvisining (katta enasining) nomi bilan atalgan qiz”[34]

Şunday qilib, ispança *bisabuela* va rusça *прабабушка* uçinçi, özbekça uçinçi, özbekça *katta momo* (*buvi*) esa uçinçi va undan oldingi oldingi avlodga nisbatan qöllaniladi.

Dissertatsiyaning uçinçi bobi “**Ispan, rus va özbek tillarida gorizontal qon-qarindoşlik leksemalarining struktur-semantik va funksional xususiyatlari”**ni tahlil qilişga bağişlangan.

Bobning birinçi fasli “**Vertikal qon-qaridoşlik leksemalari va ularning umumiy tavsifi”** tahliliga bağişlangan. Ispan, rus va özbek tillarida gorizontal – yon çiziq qon-qarindoşlikni (kollateral) bildiruvçi terminlar mavjud.

3.1-jadval

Ispan, rus va özbek tillarida gorizontal – yon çiziq qon-qarindoşlikni (kollateral) bildiruvçi leksemalar

Ispan tilida	Rus tilida	Özbek tilida
tío (erkakning akasi; ukasi)	дядя (erkakning akasi; ukasi)	amaki
tío (ayolning akasi; ukasi)	дядя (ayolning akasi; ukasi)	toğa
tía (erkakning opasi; singlisi)	тётя (erkakning opasi; singlisi)	amma
tía (ayolning opasi; singlisi)	тётя (ayolning opasi; singlisi)	xola
hermano mayor	брат	aka
		uka
hermana mayor	сестра	opa
		singil
primo (otaning yoki onaning akasini, ukasini öğli)	двоюродный брат (otaning yoki onaning akasini, ukasini öğli)	amakivaççа (otaning akasi yoki ukasini öğliga nisbatan) toğavaççа (onaning akasi yoki ukasini öğliga nisbatan)

[34] Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 182.

prima (otaning yoki onaning akasini, ukasini qizi)	двоюродная сестра (otaning yoki onaning akasini, ukasini qizi)	amakivaççа (otaning akasi yoki ukasini qiziga nisbatan) toğavaççа (onaning akasi yoki ukasini qiziga nisbatan)
sobrino (akaning, opaning, ukaning, singilning öğli)	племянник (akaning, opaning, ukaning, singilning öğli)	jiyan (akaning, opaning, ukaning, singilning öğliga nisbatan)
sobrina (akaning, opaning, ukaning, singilning qizi)	племянница (akaning, opaning, ukaning, singilning qizi)	jiyan (akaning, opaning, ukaning, singilning qiziga nisbatan)



3.1- rasm. Ispan, rus va özbek tillarida gorizontal – yon çiziq qon-qarindoşlikni (kollateral) bildiruvçi leksemalar soni

Yuqorida keltirilgan materiallardan körinadiki, ispan, rus, özbek tillarida gorizontal qon-qarindoşlik nomlaşda bir-biridan farq qiladi. Masalan, ispan tilida qator qon-qarindoşlik leksemalari bir xil özaklardan kelib çiqqan – *tío*, *tía*; *hermano*, *hermana;* rus va özbek tillarida – turli özaklardan – *дядя*, *мётя*, *брат*, *сестра*; *amaki*, *amma*, *aka*, *opa*. Bundan gorizontal qon-qarindoşlik leksikaning semantikasi va uning matnda funktsional qöllanilişi darak beradi.

Bobning ikkinçi fasli "**Gorizontal bevosita qon-qarindoşlik leksikaning semantikasi va uning matnda qöllanilişi**" özbek tilidagi gorizontal (yon çiziq) qon-qarindoşlik terminlarning aksariyati ota yoki ona tomondan qarindoş bölgan şaxslarga tegişli ekanligi ta'kidlangan. Misollarga murojaat qilamiz.

Tio – "Mi papá y mi tío los "Flores" se quedaron en Tepic"[35].

Ispança *tio* sözi kelib çiqiş nuqtai nazardan yunonça *ot θετος* [thios] 'otaning, onaning akasi yoki ukasi' leksemasiga borib taqaladi.

Ispan tilida otaning akasiga nisbatan *tío abuelo* ('дедушка', 'bobö) leksemasi qöllaniladi: "Rodolfo Herrero para deshacerse de Venus tiano Carranza y, por tanto, mi tío abuelo y el resto de los que lo acompañaban en aquel jacal en Tlaxcalaltongo"[36].

[35] Historiade una madre // https://www.uam.mx/difusion/casadeltiempo/55_v_may_2012/casa_del_tiempo_

[36] Víctor Lara Bermejo. L'historia de tío como forma de tratamiento coloquial en español // Revista de Historia de la Lengua Española, 2024. – Núm. 19. – P. 47.

Viktor Lara Bermejo özining "La historia de tío como forma de tratamiento coloquial en español" nomli maqolasida "qarindoşlik leksemasi "tio" hozirda ispan tilidagi murojaat şakli bölib, oilaviy aloqalari bölmagan suhbatdoşlar uçun sözlaşuv tilida ham qöllaniladi" deb ta'kidlagan[37].

Ispanlar madaniy muhitida begona yoki yaqin bölmagan odamni *tío* "amaki" deb çaqiriş lingvokulturologik holatni oçib beradi: "Oiga, tío, ¿tiene fuego?" (Camilo José Cela, La colmena). *Tío* бу ерда denotativ "buvaning, boboning, otaning akasi"ni anglatiş uçun emas, konnotativ ma'noda, ya'ni "begona şaxsga norasmiy murojaat" şakil funksiyasini bajaradi.

Дядя – "Но дядя его звал к себе в адъютанты в Киев"[38].

S.I.Ojegovning "Словарь русского языка" luğatida *дядя* sözining 'ota yoki onaning aka-ukasini hamda amma va xolaning turmuş örtoği' kabi ma'nolari keltirilgan[39]. Ammo XVI asrgaça otaning aka-ukasi "стрый" (< **stryjь*), onaning – "вуй" (< **ujь*)[40] deb atalgan.

Hozirgi rus tilida дядя sözinig qator hosilalari mavjud: "*дяденька*, *дядечка*, *дядька*, *дядюшка*, *дядек*, *дяденькин*, *дядькин*, *дядюшкин*, *дядин*, *дядний*, *дядевский*"[41].

Ta'kidlaş joizki, ispan va rus tillarida xolaning turmuş örtoğiga mos ravişda *tio*, *дядя*, toğaning rafiqasiga – *tia*, *тётя* deb murojaat qilinadi. ***Amaki*** – "Oysifatning amakisi Qora bobo öz akasi Abdi boboning oldiga keldi"[42].

Ş. Raxmatullaevning "Özbek tilining etimologik luğati"da *amaki* sözi quyidagiça tavsiflangan: "Bu ot bilan arabça *amma* otining asosi *amm*(*un*) bölib, "ota" ma'nosini anglatadi… *Amma* oti arab tilida *amm*(*un*) otiga -*at*(-*un*) jenskiy rod qöşimçsini qöşib hosil qilgan…; tojik tiliga rod qöşimçasi oxiridagi *t* tovuşini -*un* kelişik qöşimçsi bilan birgalikda taşlab olingan. Bu ot "otaning opa-singlisi (jiyanga nisbatan)" ma'nosini anglatadi. Tojik tilida *amma* oti tarkibidagi qöş *m* tovuşidan biri taşlanib, "izzat-hurmat" ma'nosini ifodalaydigan tojikça -*ak* qöşimçasi… qöşilgan (*amak*); Bu otni özbek tiliga olişda oxiriga *i* tovuşi qöşilgan (*amaki*). Har ikki tilda bu ot "otaning aka-ukalari (jiyanga nisbatan)" ma'nosini anglatadi"[43].

Özbek tilining izohli luğatiga muvofiq, "amaki [*f.* < *a.* عمّ – amaki] **1** Ota-onaning akasi yoki ukasi (jiyanga nisbatan). **2**. Özidan katta erkak kişiga murojaatda yoki hurmat yuzasidan işlatiladi. **3** Umuman erkak kişi"[44].

Özbeklar madaniy muhitida *amaki* bevosita qarindoşni emas begona katta yoşdagi erkakka nisbatan işlatilib, milliy murojaat modelini namoyon qiladi: "Omon şaqildoqni bozorga solib çala ketdik"[45].

---

[37] Víctor Lara Bermejo. La historia de tío como forma de tratamiento coloquial en español // Revista de Historia de la Lengua Española, 2024. – Núm. 19. – P. 47.

[38] Толстой Л.Н. Мать // https://rvb.ru/tolstoy/01text/vol_12/02edit/0296.htm

[39] Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: Русский язык, 1990. – С. 188

[40] Трубачев О. Н. История славянских терминов родства и некоторых древнейших терминов общественного строя. – М.: АН СССР, 1959. – С. 79.

[41] Косс Е. В. Лексикографический портрет слова «дядя» во вторичной номинации // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2023. – Том 16. – Выпуск 3. – С. 794.

[42] Abdiyev Akmal. Hayot özi murabbiy: şe'rlar, suhbatlar, maqolalar. –Toşkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 336 b.

[43] Rahmatullaev Ş. Özbek tilining etimologik luğati. III (forsç, tojikça birliklar va ular bilan hosilalar). – Toşkent: "Universitet", 2009. – B. 8.

[44] Özbek tilining izohli luğati. – T.: Ğafur Ğulom nomidagi naşriyot-matbafura ijodiy uyi, 2023. – J. I. – B. 98.

[45] Ğafur Ğulom. Şum bola: qissa. – Toşkent: Yoşlar naşriyot uyi, 2018. – B. 21.

Toğa – “Yoşligimda toğamning mendan ikki yoş katta öğlini asrab olmoqçi bölganliklari va qarşilikka uçraganliklarini volidamiz köp marotaba gapirganlarini eslayman”[46].

Ş. Raxmatullaevning “Özbek tilining etimologik luğati”da *toğa* leksemasi haqida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: “onaning aka-ukasi… Qadimgi turkiy tilda ham şunday ma’noni anglatgan bu söz “ona” ma’nosini anglatgan **tay** oti bilan asli “aka” ma’nosini anglatgan **ağa** otining birlaşuvi natijasida yuzaga kelgan, bunda avval **y** undoşi talaffuz qilinmay qöygan, şuning hisobiga birinçi böğindagi **a** unlusi çöziqliq kaşf etgan, keyinçalik yonma-yon kelgan **a:a** unlilari bir çöziq unliga birlaşgan, söngra bu unlining çöziqlik belgisi yöqolgan…; özbek tilida birinçi böğindagi **a** unlisi **â** unlisiga, ikkinçi böğindagi **a** unlisi **ä** unlisiga almaşgan: **tay** + **ağa** = **tayağa** > **ta:ağa** > **ta:ğa** > **tağa** > **tâğä**…”[47].

Hozirgi özbek adabiy tilida *toğa* sözi iikita ma’noda qölalniladi:

1. “Ayolning aka-ukalari (uning bolalariga nisbatan): Enam sizni, yangamni köpdan-köp sörab yubordilar, toğajon” (A’zamov Erkin. Bayramdan boşqa kunlar. Qissa va hikoyalar, 219).

2. “Özidan kattalarga murojaat şakli: Ozi, bizlarni mehmonga çaqirmoqçi bölib tueişuvdi. Mişa toğa keladi. Uni taniysiz-a? Muftilla aka-çi” (A’zamov Erkin. Bayramdan boşqa kunlar. Qissa va hikoyalar, 14).

Şunday qilib, özbek tilida *toğa* sözining denotativ ma’nosi qöllanilganda onaning akasi yoki ukasi tuşuniladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, ispan va rus tillarida bu şakllar yöq, ya’ni ularda “toğa” hamda “amaki” bir xil termin – muvofiq ravişda “tio” va “дядя” bilan ifodalanadi.

Тётя – “ В вологодской парной дородная тетя Мотя кричит: Становись, мужики! и всю шеренгу обдаёт из трубы паром” (А. Солженицын. Архипелаг ГУЛАГ, 537).

Ilmiy manbalarda berilişiça, *метка* (*тётя*) “teti, ya’ni ‘kesilgan’ sözidan kelib çiqqan”. “Тетка” rus xalqining luğatidagi eng keng tarqalgan sözlardan biridir. Rus tilşunoslari fikriga köra, uşbu leksemaning *тётя* şaklini bolalar öylab çiqargan. Bolalar nutqi paydo böliş jarayonida otalar «тата» yoki «тятя», ularning singillari esa «тятя» deb atalgan fikr ham mavjud[48].

Amma – “Tört farzandimning bittasiga ammasi, uçtasiga esa volidam ism qöygan”[49].

Özbek tilining izohli luğatida *amma* leksemasi “otaning opasi yoki singlisi (jiyanlarga nisbatan)” deb ta’riflangan[50]. Uning ma’nosi Erkin A'zamning “Bayramdan boşqa kunlar" asarida aniq va tuşunarli qilib izohlangan: “Bakir erkak kişi emas, göyo u bir yoş bola, ammamning buzoği, heç baloga fahmi etmaydi, etsa, tuşunsa ham qölidan nima iş kelardi” (A’zamov Erkin. Bayramdan boşqa kunlar. Qissa va hikoyalar, 80).

---

[46] Qoraboeva. Saida Hikoyalar // https://ok.ru/group/52496574120151/topic/156139279023575
[47] Rahmatullaev Ş. Özbek tilining etimologik luğati. III (turkiy sözlar). – Toşkent: “Universitet”, 2000.– B. 352.
[48] Этимология слова тетя // https://anti-fasmer.livejournal.com/1143476.html
[49] Qoraboeva. Saida Hikoyalar // https://ok.ru/group/52496574120151/topic/156139279023575
[50] Özbek tilining izohli luğati. – T.: Ğafur Ğulom nomidagi naşriyot-matbafura ijodiy uyi, 2023. – J. I. – B. 104.

Xola – “Mendagi holatni payqagan onam yana xolamning qaynjiyani haqida söz oçdi”[51].

Ş.Raxmatullaevning fikriga köra, “bu arabça söz **xālat(un)** şakliga ega…; özbek tiliga çöziq **ā** unlisini **â** unlisiga almaştirib, söz oxiridagi **t** tovuşini taşlab qabul qilingan: **xālat → xâla (xola);** “toğa” ma’nosini anglatuvçi arabça **xāl(un)** sözining… **-at(un)** qöşimçasi bilan hosil bölgan muannas şakli bölib…, “onaning opa-singillari” ma’nosini anglatadi”[52]. ÖTILda xola leksemasining quyidagi ma’nolari keltirilgan[53]:

1) ‘onaning singlisi yoki opasi’: “Xolasi topgani bir körişdayoq Bakirning didiga ötirişmadi: ötaketgan tortinçoqmi-yey, qişloqiga öxşagan bir balo” (A’zamov Erkin. Bayramdan boşqa kunlar. Qissa va hikoyalar, 39);

2) ‘keksa ayollarga hurmat bilan murojaat qiliş şakli’: “Şaharni yaxşi körardim, şahardagi soya-salhin, ozoda maydonlarni, keng-katta köçalarni, köçalar böyidagi kökiş dökonçalarda şirin jilmayib turadigan oq peşgirli xuşmuomala xolalarni – muzqaymoqni, içib qonmaydigan qip-qizil şarbatlarni, uyoqdan-buyoqqa ğiz-ğiz uçib yuradigan turli-tuman maşinalarni” (A’zamov Erkin. Bayramdan boşqa kunlar. Qissa va hikoyalar, 188);

3) ‘hurmat yuzasidan yoşi katta ayollar ismiga qöşib işlatiladi’: “Kökköz xola-a, xamirturuşingizni berib turarkansiz, enam aytdilar”[54].

Yuqorida olib boril tahlil natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Ispança *tía* va rusça *мётя* ota-onaning farzandlari tomonidan ularning opa-singllariga hamda aka-ukalarini xotinlariga nisbatan qöllaniladi.

2. Hozirgi özbek tilida *amma* leksemasi ‘otaning opasi yoki singlisi, *katta amma*, *kiçik amma* söz birikmalari esa ‘otaning otasini opasi yoki singlisi’ ma’nosini anglatadi.

3. Hozirgi özbek tilida *xola* leksemasining konnotativ ma’nolari kengaygan: onaning xolasiga “katta xola”, opasiga yoki singlisiga, yosi katta ayollarga “xola”, quda tarafdagi yoşi uluğ ayollarga “quda xola”, kuyovlar va kelinlar qaynonalariga, yoşlar notaniş xotin-qizlarga “xola” deb murojaat qilişadi.

XULOSA

1. Dunyo tillarining luğat qatlami lingvistlar tomonidan tadqiq etib kelinayotgan bölsa-da, talaygina leksemalar etarli darajada tahlil qilinmay kelinmoqda. Bunday holat zamonaviy tillarda qöllanilayotgan sözlarning taraqqiyot jarayoni hamda taşqi va içki şakllari haqida aniq ma’lumotga ega böliş imkoniyatini çeklab qöymoqda. Pirovardida qardoş va noqardoş tillarning özaro aloqalari bilan boğliq qator masalalar öz yeçimini topmay qolmoqda. Şu sababli qon-qarindoşlikni bildiruvçi leksemalarni örganişga alohida qiziqiş mavjud.

2. Qon-qarindoşlikni bildiruvçi leksemalar azaldan turli xalqlar tillarida, jumladan, qardoş va noqardoş, keng qöllaniladigan leksik qatlamlardan biridir.

---

[51] Qoraboeva. Saida Hikoyalar // https://ok.ru/group/52496574120151/topic/156139279023575

[52] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: “Университет”, 2003. – Б. 486-487.

[53] Özbek tilining izohli luğati. – T.: Ğafur Ğulom nomidagi naşriyot-matbafura ijodiy uyi, 2023. – J. VI. – B. 62.

[54] A’zamov Erkin. Ступка (ҳикоя) // https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/erkin-a-zam-1950/erkin-a-zam-stupka-hikoya

Ularning har biri öz tarixiga ega ekanligi şubhasizdir. Tadqiq etilgan ispan, rus va özbek tillari qon-qarindoşlik leksemalarining hanuzgaça qiyosiy-çoğiştirma asosda örganilmaganligi mazkur işning dolzarbligini asoslaydi.

3. Ispan, rus va özbek tillari misolida avlod ketma-ketligiga köra qon-qaridoşlikka oid leksemalar semantik nuqtai nazardan ‘nasabning yuqoriga va pastga tarqaliş şajarasi’ tuşunçasini ifodalaydi. Şuningdek, uşbu leksemalar ispan, rus va özbek xalqlarining madaniy taraqqiyotini hamda tillararo özaro munosabatlarini tadqiq etişda bebaho manba hisoblanadi.

4. Ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qaridoşlikka oid leksemalar ikki guruhga bölinadi: vertikal (töğri şajara) – avlodlarning yuqoridan pastga qarab tuşiş ketma-ketligini bildiruvçi çiziq; gorizontal (yon şajara) – umumiy ajdodga ega bölgan, biroq bir-biridan kelib çiqmagan qarindoşlarni bildiruvçi çiziq. Ammo qiyoslanayotgan hamda çoğiştirilayotgan tillardagi qon-qarindoşlik leksemalarining taşqi va içki şakllari köp hollarda bir-biridan farq qiladi.

5. Ispan tili flektiv-analitik, rus tili flektiv, özbek tili esa agglyutinativ til bölganligi sababli, ularning grammatik kategoriyalari bir-biridan farq qiladi. Jumladan, ispan va rus tillarida grammatik rod kategoriyasi mavjudligi sababli, qarindoşlik leksemalari ikki körinişda qöllaniladi. Ispan tilida mujskoy rod *-o* qöşimçasi va *el* artikli, jenskiy rod *-a* qöşimçasi va *la* artikli; rus tilida esa mujskoy rod qöşimçasiz va -й, -а, -я, -ь (erkak jins taaluqli sözlar) qöşimçalari, jenskiy rod *-a* qöşimçasi yordamida hosil qilinadi. Özbek tilida uşbu kategoriya bölmaganligi sababli, bu holatda jinsni körsatuvçi qon-qarindoşlik leksemalari işlatiladi.

6. Ispan tilida ota-onaning otasini yoki onasini anglatadigan leksemalar *bis-* old qöşimçasi, rus tilida – *прa-* old qöşimçasi, ota-ona otasining, onasining otasini yoki onasini anglatadigan leksemalar esa *tatara-* old qöşimçasi, rus tilida *прaпра-* old qöşimçasi («удвоенная приставка») yordamida yasaladi. Özbek tilida uşbu ma’nolarda qöllanaladigan leksemalar tegişli ravişda turkiyça *katta* va forsça *kalon* sözlarining qöşliş natjasida yasaladi.

7. Ispan va rus tillaridan farqli ölaroq, özbek tilida ota va ona taraf qarindoşlarining hamda ularning farzandlarining nomlanişi jins va yoşni inobatga olgan holda ifodalanadi. Uşbu leksemalardagi semantik ziddiyat qon-qarindoşlik semasini saqlagan holda, jins va yoş belgilariga köra bir-biriga qarama-qarşi tuşunçalarni yuzaga keltiradi.

8. Qator qon-qarindoşlik leksemalarining ispan, rus va özbek tillarida konnotativ ma’noda qöllanilişi kuzatiladi. Bu örinda özbek tilidagi vertikal qon-qaridoşlik leksemalari köçma ma’nolarda kengroq işlatiladi.

9. Qon-qarindoşlik leksemalarining kelib çiqişi ispan tilida – lotin tiliga, rus tilida – slavyan tillariga, özbek tilida esa umumturkiy, arab va fors-tojik tillariga borib taqaladi.

10. Ispan, rus va özbek tillaridagi qon-qaridoşlikka oid leksemalarning tadqiqi jarayonida olingan ilmiy natijalar leksikografik manbalar sifatini oşirişga hamda ispança-rusça, ispança-özbekça va yangi ispança-rusça-özbekça luğatlarni yaratişga xizmat qiladi.

11. Qardoş va noqardoş tillardagi milliy öziga xos luğat qatlamlarini aniqlaş, ularning etnomadaniy va lingvomadaniy xususiyatlarni örnatiş qon-qarindoşlik leksemalarini soliştiriş istiqbolli körinadi.

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01
ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
AT UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY
UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY

SAIDKHODJAEVA MEKHRIXON RAKHMAT QIZI

A STUDY OF TERMS DENOTING PERSONS IN SPANISH, RUSSIAN, AND UZBEK
(Based on Blood Kinship Lexemes)

10.00.13 – Comparative and contrastive linguistics

ABSTRACT
of the dissertation for the degree of doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

Tashkent – 2026

The theme of the dissertation of Doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under number B2017.3.PhD/Fil314.

The dissertation was completed at the Uzbekistan State University of World Languages.

The abstract of the dissertation is published in three languages (Uzbek, Russian, and English (resume)) on the website of the Scientific Council (www.uzswlu.uz) and on the "ZiyoNet" information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Kulmamatov Dusmamat Sattarovich**, Doctor of Sciences in Philology, Professor
Official opponents:	**Akhmedov Oybek Saporbayeviç** Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor
	Şamakhmudova Aziza Furqatovna Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor
Leading organization:	**Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni**

The defense of the dissertation will take place on "__" _____ 2026 at ____ at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 for Awarding Scientific Degrees under the Uzbekistan State World Languages University (Address: 100170, Tashkent, Uchtepa district, G-9a residential area, Kichik Halqa Yuli Street, House 21a. Tel: (99871) 230-12-91; Fax: (99871) 230-12-91; E-mail: uzswlu_info@mail.ru).

The dissertation is available for review at the Information Resource Center of the Uzbekistan State University of World Languages (registered under number ___). Address: 100170, Tashkent, Uchtepa district, G-9a residential area, Kichik Halqa Yuli Street, House 21a. Tel: (99871) 230-12-91.

The abstract of the dissertation was distributed on "___" _____ 2026.
(Record of registration No. ___ dated "___" _____ 2026)

A.A. Nasirov
Chairman of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kh.B. Samigova
Scientific Secretary of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

J.A. Yakubov
Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (annotation of the PhD dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation theme. In world linguistics, there is a growing interest in studying the lexical features of languages belonging to different language systems. This is primarily due to the continuous development of communication between languages. Examining the influence of languages on one another from diachronic and synchronic perspectives, as well as investigating their national and cultural characteristics, contributes to the further development of modern linguistics and the exploration of its new dimensions. Therefore, there is a need to investigate the epistemological and ontological aspects of kinship-related lexemes and to reveal their essential characteristics.

In world linguistics, lexemes denoting kinship relations occupy a prominent place in the vocabulary of languages belonging to different language systems. The insufficient study of these lexemes from structural and semantic perspectives necessitates further comprehensive scientific research. A comparative study of the structural-semantic and functional aspects of the formation and development of kinship lexemes in Spanish, Russian, and Uzbek, employing the comparative-contrastive method, makes it possible to address a number of important linguistic issues.

The development of Uzbekistan's economic, cultural, and diplomatic relations with European and Eastern countries has increased the interest of the Uzbek people, particularly young people, in learning foreign languages. As President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev has emphasized, "...in the present era, it is impossible to achieve great goals without mastering foreign languages"[1]. This situation necessitates, among other things, the comparative and contrastive study of languages in our country. Therefore, investigating kinship lexemes in Spanish, Russian, and Uzbek is regarded as one of the most important tasks of contemporary linguistics.

This dissertation will serve, to a certain extent, to fulfill the objectives set out in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6084 dated October 20, 2020, "On Measures to Further Develop the Uzbek Language and Improve Language Policy in the Country"; Decree No. PF-6097 dated October 29, 2020, "On Approval of the Concept for the Development of Science until 2030"; Decree No. PF-5117 dated May 19, 2021, "On Measures to Bring the Promotion of Foreign Language Learning in the Republic of Uzbekistan to a Qualitatively New Level"; Decree No. PF-60 dated January 28, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026"; Decree No. PF-158 dated September 11, 2023, "On the Uzbekistan–2030 Strategy"; Resolution No. PQ-308 dated October 20, 2025, "On Additional Measures to Further Develop the State Language"; Decree No. PF-58 dated April 10, 2026, "On Additional Measures to Improve the System of Higher Education, Science, and Innovation"; as well as other regulatory legal acts relevant to this field.

[1]2020 йил 29 декабр куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва şavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020

The relationship between the research and the priority areas of development in the republic's science and technology. The dissertation research was conducted in accordance with the priority area of the development of science and technology in the Republic of Uzbekistan: I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and a democratic state".

The level of development in solving the problem. A number of scholarly studies in linguistics have been devoted to the investigation of kinship lexemes[2] in typologically diverse languages.

The origin and formation of kinship lexemes have been investigated in the scholarly works of a number of linguists, including A.R. Agurto, B. Mauricio, J.G. Sánchez, S.T. Juarez, R.B. Araujo, P.M. García, F.P. Filin, A.N. Kononov, O.N. Trubachev, A.A. Pokrovskaya, S.M. Abramzon, S.A. Moiseyeva, O.Yu. Nikolenko, and S.J. Davlatova[3].

From a synchronic perspective, kinship lexemes have been examined in Spanish by F. Robin, M.L. García, and S.T. Juárez[4]; in Russian by A.I. Moiseev, N.I. Sumnikova, M.M. Kopylenko, Y.Y. Kosheleva, and O.S. Chesnokova[5]; and in

---

[2] A lexeme – is an independent lexical unit with an integral form and meaning, considered as a whole, and a unit of the language system that conveys lexical meaning // Leksema (ahttp://feb-web.ru/feb/slt/abc/lt1/lt1-3992.htm (murojaat sanasi: 18.10.2021)

[3] Alexis Reto Agurto. Origen de las palabras "madre" y "mamá" // https://www.udep.edu.pe/castellanoactual/ origen-de-las-palabras-madre-y-mama/; Mauricio B. « Pater», «auunculus», auus, nella cultura romana più ar- caica // Athenaeum 62, 1984. – Pp. 468–491 ; Jairo Javier García Sánchez. Los grados de abuelo // Actas del VIII Congreso Internacional de Historia de la Lengua Española, 2012. – Pp. 1385–1394; Susana Terrones Juárez. Lo que hay detrás de "madre" // https://www.udep.edu. pe/castellanoactual/ lo-que-hay-detras-de-madre/; Raúl Bendezú-Araujo. El léxico de parentesco del quechua según Juan Pérez Bocanegra (Cuzco, siglo XVII) // Lexis, 2014. – Vol. XXXVIII (2). – Pp. 429–456; Филин Ф. П. О терминах родства и родственных отношений в древнерусском литературном языке // Язык и мышление. – М.-Л., 1948. – Т. 11. – С. 329–346; Кононов А. Н. К этимологии слова огул «сын» // Филология и история монгольских народов. Памяти академика Б. Я. Владимирцова. – М., 1958. – С. 175–176; Трубачев О. Н. История славянских терминов родства и некоторых древнейших терминов общественного строя. – М.: АН СССР, 1959. – 148 с.; Покровская А.А. Термины родства в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М., 1961. – С. 11–81; Абрамзон С. М. О некоторых терминах родства в тюркских языках // Тюркология: к 70-летию акад. А.Н. Кононова. – Л., 1976. – С. 204–207; Моисеева С.А. Диахронический анализ терминов родства в западно-романских языках // Актуальные проблемы теоретической и прикладной лингвистики и оптимизации преподавания иностранных языков: памяти проф. Р.Г. Пиотровского. Материалы II Междунар. науч. конф., Тольятти, 5-7 окт. 2010 г. – Тольятти, 2010. – С. 237–243; Николенко О. Ю. Номинации кровного родства в древнерусском языке // Вестник Омского ун-та. Гуманитарные исследования, 2018. – № 4 (21). – С. 72–76; Давлатова С.Ж. Названия, связанные с родством в словаре М.Кашгарского «Диван лугат ат-Турк», их использование в современном кыргызском языке // Бюллетень науки и практики, 2021. – Т. 7. - № 5. – С. 605–615.

[4] Fox Robin. Sistemas de parentesco y matrimonio. 2ª edición. – Madrid: Alianza editorial,1979. – 125 p.; María Isabel Loring García. Sistemas de parentesco y estructuras familiares en la Edad Media. – Gobierno de la Rioja, 2001. – 26 p. ; Susana Terrones Juárez. Lo que hay detrás de "madre" // https://www.udep.edu. pe/castellanoactual/ lo-que-hay-detras-de-madre/.

[5] Моисеев А. И. Термины родства в современном русском языке // Филологические науки: Научные доклады высшей школы. – М.: Наука, 1963. – Вып. № 3 (23). – С. 120–132; Сумникова Н. И. Термины родства и свойства в современном русском языке // Русская Речь. – М.: Наука, 1969. – № 2. – С. 117–123; Копыленко М. М. Семантические производные от русских терминов родства: парные лексемы дядя-тетя // Филол. науки. – М., 1992. – № 5/6. – С. 52–62; Чеснокова О.С. Отражение языковой картины мира в развитии лексической системы мексиканского национального варианта испанского языка: Автореф. Дисс. ... д-ра. филол. наук. – М., 2006. – 38 с.; Кошелева Е. Ю. Терминология родства в русском языке // Альманах современной науки и образования. – Томск: Издательство «Грамота», 2009. – № 2 (21). – Часть 2. – С. 73–74.

Uzbek by A. Ishayev, M.Sh. Saidova, S.A. Ulugmuratova, D. Nu'monova, N.R. Jalilova, and B.U. Rahmatov[6].

It should be noted that kinship lexemes, particularly those denoting consanguineous relationships, in related and unrelated languages have also been investigated by linguists through comparative studies (I. Ismoilov, I.S. Kozyrev, O.S. Maniyazova, V.V. Zvyagintseva, M. Nikolić, N.V. Novospasskaya, and A.V. Andreyeva[7]), contrastive studies (B.A. Dzhabborov, Kh.Kh. Egamnazarov, A.Sh. Albekova, Sh.Zh. Erzhigitova, T. Yuyan, Ch.Zh. Musayeva, I.A. Rasulova, and G.U. Ochilova[8]), and comparative-contrastive studies (M.Sh. Sarybayeva[9]). However, the kinship lexemes used in Spanish, Russian, and Uzbek have not yet been subjected to a comprehensive analysis from a comparative-contrastive perspective.

Relevance of the dissertation topic to the research activities of the higher education institution where the dissertation was completed. The dissertation was carried out within the framework of the research project entitled "New directions in addressing theoretical problems of modern linguistics", included in the research plan of Uzbekistan State World Languages University for 2023–2025.

---

[6] Ишаев А. Ўзбек шеваларидаги кариндошлик терминлари // Ўзбек халк шевалари луғати. – Тошкент, 1971. – Б. 320–385; Нуъмонова Д. Қон-қариндош номларининг компонент таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – № 5. – В. 47–55; Жалилова Н.Р. Бадиий матндаги қон-қариндошлик терминларининг типологик ва структурал-грамматик тавсифи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) д-си автореферати. – Самарқанд, 2019. – 51 б.; Saidova M. S. Namangan özbek şevalaridagi quda, jiyan terminlarining etimologiyasi va leksik-semantik xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023. – 3(11). – B. 357–363; Улугмуратова С.А. Лексико-семантическая и культурная интерпретация концепта «мать» в узбекском языке // Universum: филология и искусствоведение – электрон. научн. журн., 2025. – № 8 (134). – С. 33–37; Rahmatov B.U. Özbek tilidagi qarindoşlik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari // "World of Philology" Scientific Journal, 2025. – Vol. – 4 – Iss. 3. – Pp. 122–138.

